



V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo‘yicha 2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **20 528** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 860** tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Urganch shahrida **4 026** tani yoki jamiga nisbatan **19,6 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Urganch shahri – **13,3 %**, Urganch tumani – **10,3 %**, Yangiariq tumani – **9,2 %**, Bog‘ot tumani – **8,9 %**, Qo'shko'pir tumani – **8,7 %**, Shovot tumani – **8,6 %**, Hazorasp tumani – **8,1 %** hissalariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Urganch sh.	26,1
Xiva sh.	15,6
Bog'ot	9,6
Gurlan	10,9
Qo'shko'pir	10,3
Urganch	12,7
Hazorasp	8,1
Tuproqqal'a	13,3
Xonqa	10,8
Xiva	10,9
Shovot	9,9
Yangiariq	14,0
Yangibozor	14,1

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 12,4 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024- yil 1- yanvar holatiga nisbatan 1,9 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 26,1 birlik, Xiva shahrida 15,6 birlik, Yangibozor tumanida 14,1 birlik, Yangiariq tumanida 14,0 birlik va Tuproqqal'a tumanida 13,3 birlikka yetdi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)**

	2025- yil 1- yanvar holatiga ro‘yxatga olingan	2024- yil yanvar - dekabr	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo‘yicha:	35 013	6 860	3 057
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	6326	916	383
Xiva	2708	389	157
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	2481	614	269
Gurlan	2419	502	218
Qo‘siko‘pir	2942	594	255
Urganch	3937	707	285
Hazorasp	2236	554	232
Tuproqqa'l'a	840	180	98
Xonqa	2518	399	206
Xiva	2554	453	179
Shovot	2272	590	288
Yangiariq	2169	631	296
Yangibozor	1611	331	191

2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 6 860 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 916 ta, Urganch tumanida 707 ta, Yangiariq tumanida 631 ta, Bog‘ot tumanida 614 ta, Qo‘siko‘pir tumanida 594 ta, Shovot tumanida 590 ta, Hazorasp tumanida 554 ta, Gurlan tumanida 502 ta, Xiva tumanida 453 ta, Xonqa tumanida 399 ta, Xiva sh. 389 ta, Yangibozor tumanida 331 ta va Tuproqqa'l'a tumanida 180 tani tashkil qildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,3 foizi (2023- yil yanvar-dekabrda 72,7 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar- dekabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6 106,0 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,0 foizi) tashkil qildi;

- 28 941,3 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 102,5 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 95,8 foizi) tashkil qildi;

- 7 510,7 mlrd so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalarha jining 50,8 foizi) o‘zlashtirildi va 2023- yilning yanvar- dekabrga nisbatan 145,9 foizni tashkil qildi;

- 9 680,5 mlrd so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 90,0 foizi) bajarildi va 2023- yilning yanvar- dekabrga nisbatan 74,0 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 81,9 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 102,3 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 95,9 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 96,8 foizi yoki 15 571,0 mlrd so‘mi (o‘sish 112,3 foiz) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 73,2 foizi yoki 20 698,2 mlrd so‘mi (o‘sish 114,0 foiz) shakllantirildi;

- 254,9 mln AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 66,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 228,9 mln AQSh dollari (umumiyligi import hajmining 48,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik
subyektlarining ulushi
(2024- yilning yanvar- dekabrida)**

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	28 941,3	95,8
Sanoat	6 106,0	21,0
Qurilish	9 680,5	90,0
Chakana savdo	15 571,0	96,8
Yuk tashish, <i>mln tn.</i>	37,5	93,5
Yo‘lovchi tashish, <i>mln.kishi</i>	451,9	94,5
Eksport, <i>mln AQSh doll.</i>	254,9	66,0
Import, <i>mln AQSh doll.</i>	228,9	48,6

**2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari,
% da**

